

	4. Donald R. Askeland, Pradeep P. Fulay. Essentials of Materials Science and Engineering. Second Edition. CENGAGE Learning, 2009, - 604p.
Axborot manbaalari	
<p>1. https://phet.colorado.edu/en/simulations/filter?subjects=physics&sort=alpha&view=grid</p> <p>2. https://teach-in.ru/#category-physics</p> <p>3. https://fizika.ru/</p> <p>4. https://www.vaseak.cz/physicsanimations.php?l=ru</p> <p>5. https://unilibrary.uz/literature/89391</p>	
7.	O'quv dasturi Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashning 2024 yil 26 iyundagi 11-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun ma'sular:
	Kasimov Sh.A. TerDU, Noorganik kimyo kafedrasi mudiri, k.f.d., prof.
	Turdimurodov O TerDU. Noorganik kimyo kafedrasi o'qituvchisi.
	A.Narbayev TerDU, "Umumiy fizika" kafedrasi mudiri
	B.Muhammadiyev TerDU, "Umumiy fizika" kafedrasi o'qituvchisi.
9.	Taqrizchilar:
	Shukurov D.X – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti. Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.
	To'rambetov B.S. – O'zMU kimyo fakulteti, Noorganik kimyo kafedrasi dotsenti v.b. k.f.b.f.doktori, PhD.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



**QATTIQ JISMLAR FIZIKASI VA KIMYOSINING MAXSUS QISMLARI
FANINING**

O'QUV DASTURI

- | | |
|--------------------|--|
| Bilim sohasi: | 700 000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari |
| Ta'lim sohasi: | 720 000 - Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60720600 - Materialshunoslik va yangi materiallarni texnologiyasi (tarmoqlar bo'yicha) |

Termiz-2024

Fan/modul kodi QJFK12410	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3/4	ECTS - Kreditlar 6/4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4/4		
1.	Fanning nomi Qattiq jismlar fizikasi va kimyosining maxsus qismlari	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	120	180	300	
2. I. Fanning mazmuni				
<p>Fanni o'qitishdan maqsad. Qattiq jismlar (metallar, yarim o'tkazgichlar va dielektriklar) hozirgi zamon elektronika va asboboszlik sanoatining asosiy elementlari hisoblanadi. Bu elementlar asosida ishlaydigan zamonaviy asboblarning ishlash prinsiplari va konstruksiyasi eng avvalo qattiq jismlarning fizik xossalari bilan bevosita bog'liq. Qattiq jismlar fizikasi va kimyosining maxsus qismlari fanining asosiy maqsadi qattiq jismlarning tuzilishini, ularning strukturasini aniqlash usullarini hamda ularning mexanik, issiqlik, magnit, optik, kimyoviy va boshqa xossalarni sistemali ravishda o'rnatishdan iborat.</p> <p>Fanning asosiy vazifasi talabalarda kelajakda qattiq jismlarning xossalari bilan bog'liq bo'lgan masalalami ilmiy tadqiqot ishlardida va ishlab chiqarishda qo'llay olish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.</p>				
<p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>I SEMESTR</p> <p>1-mavzu. Kirish. Kristall qattiq jismlarning tuzilishi. Qattiq jismlarning turlari. Kristall va amorf jismlar. metallar, yarim metallar, yarim o'tkazgichlar va dielektriklar haqida umumiy ma'lumotlar. Qattiq jismlarning fan va texnikadagi roli. Kristall panjara tushinchasi. Elementar yacheyska va uning turlari.</p> <p>2-mavzu. Kristallar simmetriyasi. Geometrik figura va kristall ko'p yoqlilarining simmetriyasi. Oddiy simetriya elementlari. Murakkab simmetriya elementlari. Inversion, ko'zguli burama simmetriya o'qlari. Uch o'lchamli geometrik figuralarning simmetriyasi.</p> <p>3-mavzu. Brave panjaralari. Kristall singoniyalari. Kristallning to'g'ri va teskari panjaralari. Miller indekslari. Qattiq jismlarning atom strukturasini o'rganish usullari. Kristallarda rentgen nurlari diffraksiyasi.</p>				

4-mavzu. Atomlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv. Qattiq jismlarda asosiy bog'lanish turlari. Kristall qattiq jismlarni tashkil qilgan zarralar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchlari to'g'risida umumiy tushincha. Bog'lanish energiyasi.
5-mavzu. Kristallarda kimyoviy bog'lanish turlari: metal, geteroqutbli, molekulyar, kovalent, vodorod bog'lanishli kristallar.
6-mavzu. Qattiq jismlarda nuqsonlar. Nuqsonlarning klassifikasiyasi. Nuqtaviy, yassi va hajmiy nuqsonlar. Radiasion nuqsonlar. Dislokasiyalar. Byurgers konturi va vektori.
7-mavzu. Qattiq jismlarning mexanik xossalari. Deformasiyalangan va mexanik kuchlanish ta'siridagi qattiq jismlarning holati. Elastiklik. Izotrop qattiq jismlar uchun Guk qonuni. Anizotrop qattiq jismlar uchun Guk qonuni. Mo'rtlik.
8-mavzu. Kristall qattiq jismlarda issiqlik hodisalari. Qattiq jismlarning issiqlik sig'imi. Dulong-Pti qonuni. Issiqlik sig'imi uchun Eynshteyn va Debay nazariyalarini.
9-mavzu. Qattiq jismlarning issiqlikdan kengayishi. Kristall qattiq jismlarda issiqlik hodisalari. Qattiq jismlarning issiqlik o'tkazuvchanligi. Videman-Frans qonuni. Qattiq jismlarda diffuziya hodisasi. Fik qonunlari.
10-mavzu. Qattiq jismlarning elektr xossalari. Qattiq jismlami elektr o'tkazuvchanligi bo'yicha klassifikasiyalash. Zonalarning elektronlar bilan to'ldirilishi.
11-mavzu. Metallar, yarimo'tkazgichlar, dielektriklar. Yarim o'tkazgichlarda elektr o'tkazuvchanlik. Xususiy va aralashmalni yarim o'tkazgichlar. Xoll effekti. O'ta o'tkazuvchanlik.
12-mavzu. Dielektriklarning fizik xossalari. Dielektriklarning elektro'tkazuvchanligi. Dielektriklarning qutblanishi. Qutblanishi turlari.
13-mavzu. Dielektrik singdiruvchanlik bilan qutblanish o'rtasidagi bog'lanish. Klauzius-Mossoti tenglamasi. Dielektrik singdiruvchanlikning chastotaga bog'liqligi. Segnetoelektriklar. Dielektrik yo'qotish.
14-mavzu. Qattiq jismlarning optik xossalari. Qattiq jismlarning magnit xususiyatlari. Yorug'likning qattiq jismlar bilan o'zaro ta'sirlashuvi. Optik doimiyliklar. Yorug'likning kristallarda yutilish turlari.
15-mavzu. Diamagnetizm va paramagnetizm. Ferromagnetlar. Kyuri nuqtasi va almashinish integrali. Antiferromagnetiklar va ferromagnetiklar. Ferromagnetiklar magnit xususiyatlarining tabiatini.

II SEMESTR

1-mavzu. Elementlarning atom strukturasi. Elementlarning atom tuzilishi (strukturasi). Neytron, Elektron, nisbiy atom massasi, Atomda elektronlar.

2-mavzu. Qattiq jismlarda atomlararo bog'lanishlar. Atomlararo bog'lanish energiyasi. Teylor qatoriga yoyish. Atomlararo bog'lanish kuchi. Atomlararo ion bog'lanish. Born -Mayer potensiali. Kulon energiyasi.

3-mavzu. Qattiq jismlarning kristall strukturasi. Kristall. Bir xil zarrachalarning oddiy simmetrik joylashgan strukturalari.Oddiy kub elementar yacheyka. Rombik elementar yacheyka. Simmetrik zich joylashgan strukturalarning xususiy hollari. Raqamli ultratovushli portativ defektoskop. Dag'al yuzani o'lchagich. Ultratovushli qalinlik o'lchagich.

4-mavzu.Nokristall, monokristall va polikristall qattiq jismlar Qattiq suyuqlik. Polikristallik materiallar. Anizatropiya. Kristallografik singonlar va Brave panjaralar. Akslanish tekisligi. Vintli o'q simmetriyası. Rentgenografiya. Elektronografiya. Neytronografiya.

5-mavzu. Deformatsiyalarning qattiq jism xossalari ta'siri. Qattiq jismlarning kuchlanganlik va deformatsiya holati. Devormatsiya. Elastiklik. Izotrop qattiq jismlar uchun Guk qonuni.Mexanik ta'sir, sivilish uzayish, egilish, buranlish, issiqlik ta'sir, magnit ta'sir, elektrik ta'sir, molekula, atom, qattiqlik, maxkamlik, elastiklik, mexanik kuchlanish, xajmiy kuchlar, kuchlanish tenzori, nisbiy deformatsiya, shartli va haqiqiy deformatsiya, deformatsiya diagrammasi, qaytuvchi, qaytmas, plastik, izotrop, yumshoqlik, siljish moduli, hajmi

6-mavzu. Kristall panjaradagi nuqsonlar. Aniq va noaniq kristallar, Kristallardagi nuqtaviy nuqsonlar. Keramik qattiq jismlarda nuqtaviy nuqsonlar. Qattiq jism tarkibidagi qo'shimchalar (begona zarrachalar) Bir xil zarrachalardan tashkil topgan qattiq jism tarkibidagi qo'shimchalar. Raqamli mikroskop. Metallografik raqamli mikroskop (video kamerali, dasturiy ta'minotga ega kompyuterli), Inverted metallografik mikroskop. . Raqamli ultratovushli portativ defektoskop,

7-mavzu. Qattiq jismlarda diffuziya hodisasi Diffuziya hodisasi bo'yicha asosiy tushunchalar, Atomlarning kristall panjara bo'ylab uzoq masofalarga harakatlanishi, Diffuziya uchun Fik qonunlari Statsionar diffuziya uchun Fikning birinchi qonuni, Nostatsionar diffuziya uchun Fikning birinchi qonuni

8-mavzu. Qattiq jismlarning mexanik xossalari. Umumiy tushunchalar va deformatsiya konsepsiysi, Qattiq jisimlarni cho'zishga, sivilishga, kesilishga va burashga sinash. Kuchlanganlik holating geometrik tahlili. Deformatsion xususiyati. Rokvell, Vikers, Brinell usulida universal qattiqlik o'lchash. Universal portativ qattiqlik o'lchagich, Statsionar Rokvell qattiqlik o'lchagich.

9-mavzu. Faza yoki holat diagrammalari Asosiylar umumiy tushunchalar. Singish chegarasi, Fazalar,Qotishmalar mikrostrukturasi va fazalar turg'unligi.Gomogen va geterogen sistemalar. Diffuziyasiz o'zgarishlar, martensit kristall yacheysini . Qattiq jismlardagi faza o'zgarishlarning amaliy ahamiyati. Martensit o'zgarishlarning amaliy ahamiyati. Dispersion qotishmalar, tabiiy va sun'iy tushunchalar. Alyuminiy qotishmalarini termik puxtalash. Avtomatik adgezimet. Silliqlash va polirovkalash mashinası.

10-mavzu. Hajmiy nanokristall strukturaga ega bo'lgan materiallar. Nanokristallik strukturaga ega bo'lgan materiallar xossalari. Nanokristallik struktura modelining o'ziga xosligi. Nanokristall va nanotolali kompozitsion materiallar. Raqamli mikroskop. Metallografik raqamli mikroskop (video kamerali, dasturiy ta'minotga ega kompyuterli), Inverted metallografik mikroskop.

III.Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Laboratoriya mashgulotlari laboratoriya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alovida o'tiladi. Laboratoriya mashgulotlari talabalarda mazkur fandan to'plangan bilimlarini mustahkamlash, mustaqil holda tajribalar o'tkazish va olingan natijalar asosida xulosalar chiqarish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishga mo'ljallangan.

I SEMESTR

- 1.Texnika havfsizligi qoidalari
2. Qattiq jismlarning zichligini gidrostatik usul bilan aniqlash.
3. Qattiq jismlarning solishtirma issiqlik sig'imini aniqlash
4. Qattiq jismlarni chiziqli kengayish koefisientining temperaturaga bog'liqligini o'lchash.
5. Kichik qarshiliklarni o'lchashda metallarning solishtirma qarshiligidini aniqlash.
6. Amorf moddalarning sindirish ko'rsatkichini aniqlash.

II SEMESTR

- 1.Laboratoriya ishlash qoidalari.
- 2.Texnika xavfsizlik qoidalari.
3. Qattiq jismlarning elektr o'tkazuvchanligi.
4. Qattiq jismlarning issiqlik o'tkazuvchanligi
5. Kuchsiz magnitli qattiq jismlarning magnit sezgirligini aniqlash.
6. Ferromagnetizm.
7. Ferroelektrik xossalari.
8. Nanomateriallarni mikroskopda o'rganish
9. Metallar va qotishmalar korroziyasi

	<p>10. Rentgen difraksiyasini difraktomterda o'rganish.</p> <p>11. Dislokatsiyaning qattiq jism xossalariiga ta'siri va uni tadqiq qilish usullari</p> <p>IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p>I SEMESTR</p> <ol style="list-style-type: none"> Kristallarning tuzilishi Kristallardagi nuqsonlar Fononlar Kristallarning issiqlik sig'imi Kristallarda issiqlik o'tkazuvchanlik Fanonlarning ko'chish jarayoni Messbauer effyekti Zonalar nazariyasining elementlari Kristall panjaradagi elektronning harakati. effektiv massa Metallarda elektr o'tkazuvchanlik Yarimo'tkazgichlarda elektr o'tkazuvchanlik Yarimo'tkazgichlarda xususiy elektr o'tkazuvchanlik Yarimo'tkazgichlarning aralashmali elektr o'tkazuvchanligi O'tao'tkazuvchanlik Ferromagnetizm nazariyasi elementlari Ferromagnitizmning tabiatи Antiferromagnitizm Ferritlar Uyg'ongan holat uchun o'tish ehtimolligi Muvozanatli nurlanish. eynshteyn koefitsientlari Optik kvant generatorlari. (Lazerlar) <p>II SEMESTR</p> <ol style="list-style-type: none"> Diffuziya uchun Fik qonunlari Elementlarning elektromanfiyligi Dipol bog'lanishlardagi tebranishlar Nokristall, monokristall va polikristall qattiq jismlar. Materiallarga termik va kimyoiy termik ishlov berish texnologiyasi. Dispersion qotish, tabiiy va sun'iy eskirtirish tushunchalari. <p>3. V. Fan o'qitilishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>Qattiq jismlar fizikasi va kimyosining maxsus qismlari fani jismlar xomashyosining tavsifi, xomashyoni metallurgik qayta ishlashga tayyorlash jarayonlari, xomashyoni tanlab eritish va eritmadan metallni ajratib olish</p>
--	--

	<p>jarayonlari bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'limlaridan tashkil topgan.</p> <p>4. VI.Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar; seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotlarni qilish; individual loyihibarlar; <p>jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihibarlar.</p> <p>5. VII.Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topish</p> <p>6. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> A. Teshaboyev, S. Zaynobiddinov, Sh. Ermatov. Qattiq jism fizikasi. Toshkent, "Moliya" nashriyoti, 2001 yil. 324 b. Shakirov Sh. M. Qattiq jism lar fizikasi va kimyosining maxsus qismlari Darslik. -T.: "M a'rifat", 2023. 268 bet. A. Emiraliyev. Qattiq jismlar fizikasining maxsus bo'limlari. 1 jild. Toshkent: ToshD TU , 2015. A. Emiraliyev. Qattiq jismlar fizikasining maxsus bo'limlari. 2 jild. Toshkent: ToshD TU, 2007. 18. A. Emiraliyev. Q attiq jismlar fizikasining maxsus bo'limlari. 3 jild. Toshkent: ToshD TU, 2007 19. Sh. A. Karimov, Sh. M. Shakirov, M. A. Mamatqosimov. "Nometal materiallar texnologiyasi". T.: "Fan va texnologiya", 2015, 160 bet. Norxudjayev F.R. Materialshunoslik. Darslik. - T.: Fan va texnologiyalar. 2014 <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> Anthony R, West "Solid State Chemistry and its applications" Second Edition. Student Edition 2014 John Wiley and Sons, Ltd. Philip Hobfom "Solid State Physics" Second Edition, an Introduction 2015 Wiley-VCH Carter C. Barry, Norton M. Grant "Ceramic Materials Science and Engineering" 2007 Springer.
--	--